



**Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**  
Hosted online from Toronto, Canada.  
**Date:** 5<sup>th</sup> October, 2023  
**ISSN:** 2835-5326

**Website:** econferenceseries.com

## **GLOBALLASHUVNING O'ZBEKLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRI (XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHLARI)**

Zokirov Javharbek

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistratura 2-bosqich talabasi

Ustozi PhD Odilov Bobur

### **ANNOTATSIYA:**

Ushbu maqolada Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishmoqda. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Bugun jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan globallashuv har bir davlat, xalq, millat, yoxud insoniyat ma'naviyatida yangicha ma'no-mazmun kasb etmoqda.

**KALIT SO'ZLAR:** muammo, ijtimoiy hodisa, integratsiya, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, zamonaviy kommunikatsiya, axborot texnologiyalari, ilm-fan, ekologik ofatlar.

### **ANNOTATION:**

In this article, Globalization is such a process that the countries that stay away from it are more affected by it. Such involuntary influence often leads to negative consequences. Globalization, which is developing rapidly today, is gaining a new meaning in the spirituality of every country, people, nation, or humanity.

**KEY WORDS:** problem, social phenomenon, integration, foreign investments, capital and goods, modern communication, information technologies, science, environmental disasters.

Hozirgi kunda globallashuv hamda bu jarayon xususida ko'plab ta'rif berilmoqda. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.

Levittning 1983-yildagi «Garvard biznes revyu» jurnalida e'lon qilingan maqolasida qo'llanilgan edi.

Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan va hozirgi davrimizga kelib bu jarayonning avj olishi ro'y bermoqda. Buning ayrim jihatlari mamlakatimiz uchun ijobiy bo'lsa, ayrimlari salbiy ta'sir etadi. Bu ayniqsa, ma'naviyatga yetarlicha zarar keltiradi. Albatta, bu jarayonlardan ko'z yumib bo'lmaydi. Muammoning qay darajadaligidan qat'iy nazar uning oldini olish, bunga qarshi kurashish choralarini izlash bizning oldimizda turgan vazifadir.

Shu xususda Yurtboshimiz shunday fikr bildirgan: “Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki, ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda” Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalinish mumkin. Ezgulik yo'lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning tamomila aksidir.

Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, u barcha sohalarda bo'lgani kabi ma'naviyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Avvalo, globallashuv – bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayondir. Shuningdek, xalqlarning madaniyatiga kuchli ta'sir etuvchi hodisa sifatida o'rganiladi. U dunyoda iqtisodiy integratsiyaning ijobiy omili va milliy iqtisodiyotning natijali o'zgarishga ko'makchi sifatida qabul qilingan.

Ammo, dunyoda axborot alma-shi-nuvining o'sishi bilan u madaniyat, ilm-fan sohasiga ham kirib keldi. Natijada millat madaniyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy tahdidlar insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrizm g'oyalari bilan zaharlovchi ushbu ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishimiz zarur. Beba ho boyligimiz milliy ma'naviyatimiz va



qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirgan holda ma'naviy tahdidlarni oldini olishga erishishimiz mumkin. Ma'naviyat haqida gap ketganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, u eng avvalo, millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. Shunday ekan globallashuv jarayonida mamlakat milliy madaniyatiga rahna soluvchi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda insonlarni yuksak ma'naviyatli bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Buning uchun jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish zarur. Ya'ni, birinchidan, mamlakat kelajagi bo'l mish yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish; ikkinchidan, manaviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab yetish; uchinchidan, atrofimizda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga befarq bo'lmasdan, dahldorlik hissini oshirish.

Globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlardan xalqni, xususan o'sib kelayotgan yoshlarni asrash, ularning qalbiga ezgulik g'oyalarini singdirish jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bug'inlarida ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etilmoqda. Bugungi kunda globallashuvning ijtimoiy hayotimiz bilan bog'liqligi xususida Prezidentimiz Sh.M.Miriziyoev o'z fikrlarini bildirar ekan, "Yangi tahdidlar, jumladan, «ommaviy madaniyat» xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir" 4, - deb ta'kidlaydilar.

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot jarayonida milliy uyg'onish davrini boshdan kechirayotganligiga, madaniy merosimiz, milliy urf-odat, qadriyatlarimizni tiklayotgan bir paytda dunyoda ezgulik va yovuzlik o'rtaсидаги ziddiyat kuchayib borayotganligiga guvoh bo'layapmiz. Har qanday mafkura xalqning ma'naviy ruhiy ehtiyojlarini milliy an'analari va turmush tarzini hisobga olgan taqdirdagina yashovchan, ta'sirchan bo'ladi. Shu o'rinda globallashuv jarayonida yoshlarning yangicha estetik madaniyatni shakllantirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish vazifasi milliy mafkura asosida bizning diqqat markazimizda turibdi.





Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga etdiki, endi mafkuraviy kurash, ma'naviy salohiyat etakchi o'ringa chiqdi. Insoniyat taraqqiyoti turli tahdidlar ta'siriga tushib qoldi, xavfsizlik va barqarorligiga rahna solishga, hatto uning hayotini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlar kundan - kunga kuchayib bormoqda endi qurolyaroqlar emas, balki "fikrga qarshi faqat fikr, g'oyaga qarshi faqat g'oya" bilan kurashib olg'a borish mumkin. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda. Hozirgi vaqtida mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. 5 Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsiyon tizimni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo'l urayotganlar o'z yovuz maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bugungi kunda ularning aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini o'zlariga ma'qul bo'lgan g'oya bilan egallashlari, ya'ni buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, g'oyalarini singdirish kabi g'arazli maqsadlari xalqqa ayon bo'lib bormoqda. Ushbu tahdidlar dunyoning turli buzg'unchi kuchlari tamonidan shunday ustakorlik bilan tarqatilmoxqdaki, u o'zining jozibali tasir kuchi orqali ko'plab insonlarni kundan - kunga o'z domiga tortib bormoqda. "Tahdid" deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashni chigallashtiruvchi hamda tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, emirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish mumkin. Albatta bunday buzg'unchi g'oyalar xamma joyda ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi bunga faqat o'zimizga ishonch bilan bir yoqadan bosh chiqarsak bu buzg'unchi g'oyaga qarshi kurashishimiz mamlakatimiz taraqqiyotini yanada rivojlanishiga xissa qo'shgan bo'lamiz.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta'sir o'tkazuvchi, turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar faoliyati tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida jahonda g'oyat

murakkab va tahlikali jarayon kechmoqda. Bular dunyoning siyosiy, mafkuraiy manzarasidagi o'zgarishlar, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilishi va bu taraqqiyotga g'ov bo'ladijan demokratik rivojlanishni izdan chikaradigan, jamiyat barqarorligiga rahnasoladigan g'oyaviy-mafkuraviy to'siqlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy (873-950), inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deydi. Ana shu jarayonda insonda fazilatlarni kamol toptirish haqida ta'kidlab quyidagi fikrlarni ilgari suradi, "Inson fazilatlar bilan kamolotga etadi va kamolotga etgan odam baxtli hisoblanadi"

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda asosiy maqsadimiz jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish ekan, birinchi navbatda, milliy g'oyani fuqarolar ongi va qalbiga chuqr singdirishga erishishimiz kerak. Aholida, ayniqsa yosh avlodda sog'lom e'tiqodni shakllantirish, ular orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un ravishda targ'ib etish ham muhim ahamiyatga ega.Umuman, fuqarolarning bilimi va tafakkurini yanada oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishlarini izchil amalga oshirib boraversak, har qanday tahdidlar bizga xavf sololmaydi.7

Shu bois ham hozirgi vaqtida yurtimizdan etishib chiqqan buyuk alloma ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish jarayonida nafaqat ilmiy maqsadlar, balki ma'naviy tarbiya manfaatlari ustuvorligidan ham kelib chiqish zarurdir. Shunday darajaga erishish lozimki, yoshlarimiz ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni o'rganish bilan bir qatorda ularni jahon miqyosida targ'ib qilishda ham faol ishtirok etsinlar. Buning natijasida yoshlarimiz qalbida cheksiz fahr va g'urur xissi yanada mustaxkamlanadi. Ma'lumki, o'z Vatani bilan faxrlanish tuyg'usi inson qalbida yuksak ma'naviyatni shakllanishida keng yo'l ochib beradi.

Bugungi kunga kelib anglab turibmizki, ularga qarshi kurashish har birimizning dolzarb vazifamiz ekan. Chunki, mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda.8



## **Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

Hosted online from Toronto, Canada.

**Date:** 5<sup>th</sup> October, 2023

**ISSN:** 2835-5326

**Website:** econferenceseries.com

Keyingi paytlarda internet bilan bog'lik buzg'unchiliklar, global tarmokdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko'payib bormoqda. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda.

G'alamis kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlariga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O'zlarini «yaqin do'st» yoki «hidoyatga chorlovchi» sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'lidan chalg'itmokda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yuq, faqatgina to'da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o'tmaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog'orasiga uynayotganini bilmaydilar. Bundaylar avval dinu diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so'zlarni gapirib, g'o'r yoshlarni yo'lidan urib, oxir-oqibatda, razolat qurbaniga aylantirmoqda.

Islom ta'limoti buzg'unchilikni, odamlar qalbiga vahima, dushmanlik va fitna urug'larini sochishni qattiq qoralaydi. Ma'lumki, so'nggi yillarda dinni o'zlariga niqob qilib olgan oqimlar, toifalar paydo bo'ldi. Ular g'arazli maqsadlari yo'lida jamiyatda buzg'unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to'kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda.

Globallashuv jarayonida kishilarni, ayniqsa yoshlarni turli xil ko'rinishdagi mafkuraviy xurujlar ta'siridan asrashda bir qator quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Jumladan, mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularning ma'naviy ahloqiy tarbiyasini shakllantirish, yoshlar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha'nini ardoqlash kabi ulug'vor fazilatlarni kamol toptirishda oila-mahalla-ta'lismuassasasi hamkorligi asosida ish tashkil etish.<sup>9</sup> Bugungi axborotlar jadal kechayotgan bir vaqtda axborot xurujlari asiriga aylanmaslik.

Demak, axborot kurashi avj olgan XXI asrda yoshlarni mafkuraviy xurujlardan himoya etishda ma'naviy-marifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini oshirish, hayotimizda sodir bo'layotgan ijobjiy o'zgarishlar haqidagi chuqr tahliliy ma'lumotlarii yosh avlodga etkazish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.



O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan sananing 30 yilligi munosabati bilan 2019 yil 21 oktyabr kuni bo'lib o'tgan tantanali yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasini hayotga to'laqonli tadbiq etilishida globallashuv jarayonida o'zbek tili va milliy ma'naviyatimizga bo'layotgan tahdidlarga qarshi tura olish zarurati to'g'ri sida alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas.

Bugungi kunda "globallashuv" so'zi eng ko'p ishlatiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ushbu tushuncha inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davridagi muhim xususiyatlarni, jumladan, tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, kishilik sivilizatsiyasi bugungi kungacha boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir vogelikni o'zida mujassam etadi. Shodmonov. B.I. O'zbekistonda ilmiy salohiyatli yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirish omillari. Globallashuv so'zining lug'aviy ma'nosi xalqaro integratsiya, ya'ni butun dunyo aholisining bir ijtimoiy tuzum ostiga birlashishi, bir xil vazifa bajarishi protsessi tushuniladi.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lган ijobiy va salbiy ta'siri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman». Shuning uchun ham milliy istiqlol g'oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda, «dovullar»dan saqlash omili ekanligini anglash mumkin.

Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqr kirib kelayotganining asosiy sababi esa, birinchi Prezidentimiz qayd etganlaridek, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqqa va hududlar bilan chambarchas bog'lanib borayotganidadir. Biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Har bir ijtimoiy xodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lganidek globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas.





Globallashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Globallashuvning salbiy tomoni esa, ko'p ming-ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusmlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o'z-o'zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qolmoqda. Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi - o'z millatining raqobatbardoshligini ko'tarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkor iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir.

Masalan, Rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovev «Aksilglobalizm vektorlari» nomli anjumanda shunday degan edi: «Globalashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik!».

Hozirgi davr dunyo g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensiv-lashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar jadallahib bormoqdi. Bunday sharoitda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo'q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va fundamentalizm, irqchilik va diniy eksteremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat biln davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild -T.: O'zbekiston , 2018. 29-30-betlar.
2. Mirziyoev.Sh.M. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O'zbekiston. 2017. -326 b.

## **Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

Hosted online from Toronto, Canada.

**Date:** 5<sup>th</sup> October, 2023

ISSN: 2835-5326

**Website:** econferenceseries.com

- 
3. Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. -Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.
  4. Quchqarov. V. Milliy o'zlikni anglash va barqaror taraqqiyot T.: Akademiya , 2013 67-bet
  5. Zokirov B. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur, 2007. №2. - 23 b.
  6. Quronov. M Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi T.: Akademiya ,2008 54-bet
  7. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020